



O'zbekiston Ekologik
partiyasi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining
Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga
o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiyasi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ilmiy – ommabop jurnal

**“YASHIL IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQAROR
RIVOJLANISHDA ILG'OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI
SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI”
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

2025-YIL 3-DEKABR

**Republican Scientific–Practical Conference
“CHALLENGES IN DEVELOPING ADVANCED ENGINEERING
SCHOOLS FOR GREEN ECONOMY AND ENVIRONMENTAL
SUSTAINABILITY”**

3 DECEMBER 2025

**Республиканская научно-практическая конференция
«ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ
ИНЖЕНЕРНЫХ ШКОЛ В РАЗВИТИИ ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ»**

3 ДЕКАБРЯ 2025 ГОДА

10-MAXSUS SON

Toshkent — 2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 102 sahifa.
2025-yil, dekabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

OLIY TA'LIMDA EKO-TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI OROLBO'YI HUDUDINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH.....	7
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich	
“YASHIL ENERGETIKA” – O‘ZBEKISTONNING YASHIL VA SOG‘LOM KELAJAGI IQTISODIYOTIMIZNING YANGI DRAYVERI.....	10
Abdushukur Hamzayev	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI.....	12
Xodjayeva Mohira Mirzaxmadovna	
QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	15
Muxiddin Kalonov	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH ASOSIDA “YASHIL O‘SISHNI” TA‘MINLASH: MUOMMO VA YECHIMLAR	19
Makhmudov Nosir Makhmudovich	
YASHIL OBLIGATSIYALAR: IQTISODIY FAOLLIK VA HISOB YURITISHNING DOLZARB MASALALARI	23
Norboy G‘anievich Karimov	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA TEXNOPARKLARNING AHAMIYATINI AKADEMIK TA‘LIM JIHATIDAN TAKOMILLASHTIRISH.....	26
Sanjarbek Mirzaliyev Maxamatjon o‘g‘li	
INDUSTRIYAL SANOAT EHTIYOJLARIGA MOS, INNOVATSIYALAR YARATISHGA QODIR MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARI VA “YASHIL” IQTISODIYOT INTEGRATSIYASINING STRATEGIK AHAMIYATI.....	28
Sherzod Qurbonov	
YASHIL BUXGALTERIYA VA YASHIL MOLİYANI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK DOLZARBLIGI.....	31
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING IJTIMOY-IQTISODIY TAHLILI	34
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
YASHIL MOLİYAVIY INNOVATSIYALAR VA ULARNING EKOLOGIK INFRATUZILMA MODERNIZATSIYASIDAGI ROLI.....	37
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ДО 2030 ГОДА.....	40
Алимова Азиза Шерзатовна	
SANOATDA YASHIL ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLAR.....	46
Abdullaev Elörbek Odiljon o‘gli	
MODA SANOATIDA YASHIL MARKETING VA ISTE‘MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI RIVOJLANTIRISH.....	50
Ahmadjonova Rayhona Jasurbek qizi	
YASHIL ERP TIZIMLARINING KORXONALARDA BARQAROR RIVOJLANISH VA MARKETING SAMARADORLIGIGA TA‘SIRI	54
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARINI INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA YASHIL MARKETINGDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI QO‘LLASH	58
Boltayeva Sitora Mirdjonovna	



HUDUDLARARO IJTIMOY TENGLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL MARKETING INSTRUMENTLARINING AHAMIYATI	62
Ibrohimov Baxtrom Bog'dirovich	
OLIY TA'LIMDA YASHIL INNOVATSIYALARNI TARG'IB QILISH ORQALI XORIJIY TALABALAR OQIMINI OSHIRISH	66
Isamuqometov Shukurullo Asotullayovich	
YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA AGROMARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA MEVA SABZAVOT BOZORIDAGI NARX BARQARORLIGI MODELI	70
Isroilov Abdurashid Abduraxmanovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	75
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI BILIMLARNI BAHOLASH TIZIMLARI VA ULARNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOSLASHGAN ILG'OR YONDASHUVLARI	78
Radjabov Bunyod Abduxalilovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MIJOZLAR BILAN YASHIL RAQAMLI ALOQALARNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	82
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY TOLALARDAN FOYDALANISHDA BARQAROR TA'MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH	85
Raximov Furqat Jalolovich	
TIJORAT BANKLARIDA OMONAT HAJMINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING ROLI	89
Raximov Shoxrux Furqatovich	
PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINI JORIY ETISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	93
Tadjiev Sa'dulla Muhitdinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORLARIDA YASHIL INNOVATSIYALAR ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA MARKETING STRATEGIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	97
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	



OLIY TA'LIMDA EKO-TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI OROLBO'YI HUDUDINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH



Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Orolbo'yi hududida ekologik barqarorlikni mustahkamlash jarayonida eko-turizmning o'rni va uning oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilinishining istiqbollari yoritiladi. Tadqiqotda ekologik tiklanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ta'lim innovatsiyalarining o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Oliy ta'lim muassasalarida ekologik yo'nalishdagi dasturlarni kengaytirish, dala-amaliyotlarni joriy etish va ekologik startaplarni qo'llab-quvvatlash Orolbo'yi hududining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi qayd etiladi. Eko-turizmni ilm-fan, ta'lim va mahalliy aholi hamkorligida rivojlantirish mintaqaning ekologik tiklanish va iqtisodiy faollik markaziga aylanishi uchun muhim omil sifatida tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: eko-turizm, Orolbo'yi, ekologik barqarorlik, oliy ta'lim, ekologik ta'lim, barqaror rivojlanish, mintaqaviy integratsiya.

Abstract. This article examines the prospects for strengthening the environmental sustainability of the Aral Sea region through the development of ecotourism and its integration into higher education. The study highlights the interconnection between ecological restoration, socio-economic development, and educational innovation. It emphasizes that expanding ecological academic programs, implementing field-based training, and supporting environmental start-ups can significantly contribute to the region's sustainable development. The integration of ecotourism with science, education, and local community engagement is presented as a key factor in transforming the Aral Sea region into an environmentally resilient and economically active area.

Key words: ecotourism, Aral Sea region, environmental sustainability, higher education, environmental education, sustainable development, regional integration.

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы укрепления экологической устойчивости Приаралья за счёт развития экотуризма и его интеграции в систему высшего образования. Исследование раскрывает взаимосвязь экологического восстановления, социально-экономического развития и образовательных инноваций. Отмечается, что расширение экологически ориентированных образовательных программ, внедрение полевых практик и поддержка экологических стартапов могут внести значительный вклад в устойчивое развитие региона. Подчёркивается, что развитие экотуризма в сотрудничестве науки, образования и местного населения служит важным фактором формирования нового экологически устойчивого и экономически активного облика Приаралья.

Ключевые слова: экотуризм, Приаралье, экологическая устойчивость, высшее образование, экологическое обучение, устойчивое развитие, региональная интеграция.

Orolbo'yi hududi bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo uchun ekologik barqarorlik masalalarida alohida e'tibor talab qiladigan mintaqalardan biridir. So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida bu hududning ekologik tiklanishi, aholi turmush sifatini yaxshilash va hudud iqtisodiy salohiyatini qayta jonlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, Orolbo'yi mintaqasida eko-turizmni rivojlantirish istiqbollari barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va hududning xalqaro miqyosdagi ijobiy qiyofasini mustahkamlash imkoniyatlariga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.



So'nggi yillarda Orolbo'yi hududida amalga oshirilayotgan loyihalarda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyani birlashtirishga alohida ahamiyat berilayotgani kuzatilmoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimida ekologik tafakkurni shakllantirish, talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va eko-turizmning barqaror modellarini ilmiy asosda ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Bu jarayon O'zbekistonning "yashil" rivojlanish siyosati bilan uyg'unlashgan bo'lib, Orolbo'yi hududini ekologik jihatdan tiklash va uni xalqaro eko-turizm markaziga aylantirish bo'yicha ijobiy prognozlarni belgilab bermoqda.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan yaratilayotgan ilmiy-amaliy platformalar, talabalar ishtirokidagi dala tadqiqotlari, ekologik innovatsiyalar va startaplar hududda eko-turizmni rivojlantirishning kuchli omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ekologik barqarorlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va Orolbo'yi landshaftlarini tiklash bo'yicha kelajakda yanada keng qamrovli natijalarga erishish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, eko-turizmni oliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish Orolbo'yi hududining tiklanish jarayonida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola aynan ana shu jarayonning nazariy asoslarini ochib berish, mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan. Ijobiy prognozlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim va eko-turizm integratsiyasi orqali Orolbo'yi hududining ekologik barqarorligi yanada mustahkamlanib, hudud iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tariladi.

Orolbo'yi hududi ekologik o'zgarishlar, iqlimning keskinlashishi, yer degradatsiyasi va suv resurslari tanqisligi bilan bog'liq murakkab jarayonlarni boshdan kechirgan bo'lishiga qaramay, keyingi yillarda bu hududni qayta tiklash va uning iqtisodiy salohiyatini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar natijasida yangi imkoniyatlar maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, eko-turizmni rivojlantirish imkoniyatlari kengaygani sari Orolbo'yi hududining o'ziga xos tabiiy landshaftlari, noyob geologik maydonlari va antropogen o'zgarishlar natijasida paydo bo'lgan ekologik fenomenlari xorijiy va mahalliy sayyohlar e'tiborini tortayotgan nuqtaga aylandi. Orol tubidagi yangi cho'l hududi, Qoraqalpog'istonning ekologik hududlari, Ustyurt platosining o'ziga xos tabiiy yodgorliklari eko-turizm uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish faqat iqtisodiy resurslar bilan emas, balki ilmiy asoslangan ta'lim jarayonlari orqali yetuk kadrlar tayyorlash bilan bevosita bog'liq. Oliy ta'lim tizimi aynan shu jarayonda markaziy drayver sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'limning eko-turizmni rivojlantirishdagi o'rni, avvalo, ekologik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash bilan belgilanadi. Bunda zamonaviy o'quv dasturlarini yaratish, ekologiya va turizmga ixtisoslashgan yangi fanlarni joriy etish, talabalarni amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Eko-turizm bo'yicha fanlar talabalarga nafaqat ekologik jarayonlar, balki hududning tarixiy, madaniy va etnografik xususiyatlari haqida keng qamrovli tasavvur beradi. Natijada, eko-turizm bo'yicha yetuk mutaxassislar ta'lim jarayonida turizm manzillarini rivojlantirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, mahalliy aholi bilan hamkorlik qilish, ekologik tadbirlarni tashkil etish va resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa Orolbo'yi hududini barqaror rivojlanishga olib chiquvchi inson kapitalini shakllantirishning asosiy poydevori sifatida xizmat qiladi.

Orolbo'yi mintaqasida ekotizimning tiklanishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlarni kuchaytirish ham oliy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda so'nggi yillarda ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar o'rtasida ekologik monitoringni kuchaytirish, tuproq va o'simlik qoplaminin holatini o'rganish, suv resurslarining transformatsiyasini tahlil qilish, cho'llanish jarayonlarini sekinlashtirish bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabalar va ilmiy xodimlar tomonidan o'tkazilayotgan dala ishlari, Orolbo'yi hududida o'simliklar qayta tiklanish dinamikasi bo'yicha kuzatuvlar, iqlim modellari asosida bashoratlar tayyorlash ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu ilmiy natijalar eko-turizm obyektlarini rejalashtirish, ekologik xavfsizlik me'yorlarini ishlab chiqish va ekologik yo'nalishdagi infratuzilma loyihalarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Alohida ta'kidlash lozim bo'lgan jihat shuki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining ekologik barqarorlik va Orolbo'yi hududini tiklash bo'yicha qabul qilgan strategik hujjatlari oliy ta'lim tashkilotlarining faoliyatiga yangi impuls berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.05.2025-yildagi "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-90-son¹ Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2024 yildagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-21-son² qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.01.2022-yildagi "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 41-son³ qarori, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan milliy

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7552003>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-6759745>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-5836850>



dasturlar, Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat qarorlari va Prezident Farmonlarida ekologik ta'lim, ekologik turizm va yoshlar o'rtasida ekologik madaniyatni rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Ushbu hujjatlar oliy ta'lim muassasalariga eko-turizm bo'yicha yangi o'quv dasturlar yaratish, ilmiy markazlar tashkil etish, hududda amaliy loyihalar olib borish uchun qulay huquqiy muhitni shakllantirdi.

Oliy ta'lim muassasalari va eko-turizm industriyasi o'rtasidagi hamkorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hamkorlik mintaqadagi turistik obyektlar bilan ilmiy asosda ishlash, turizm marşrutlarini ishlab chiqish, ekologik xavfsizlik protokollarini belgilash, marketing strategiyalarini yaratish va eko-turizm brendlarini shakllantirish imkonini beradi. Universitetlar tomonidan yaratilayotgan ilmiy-amaliy laboratoriyalar, ekologik startaplar, talaba tadbirkorligi loyihalari turizm sohasi uchun innovatsion yechimlar taklif qilmoqda. Masalan, Orolbo'yi hududida ekologik monitoring uchun dronlar, geoinformatsion texnologiyalar, raqamli xaritalash usullari qo'llanilishi talabalarning qo'llash amaliyotini kengaytiribgina qolmay, turizmni boshqarish tizimiga ham samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Eko-turizmni oliy ta'limga integratsiya qilish jarayonida mahalliy aholi bilan hamkorlik masalasi alohida ahamiyatga ega. Hududda yashovchi aholi ekologik tiklanish jarayonining ajralmas subyekti bo'lib, ular bilan bevosita ishlash, ularni o'qitish, turizm xizmatlariga jalb qilish, qo'shimcha daromad manbalarini yaratish ham ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tashkil etiladigan treninglar, seminarlar, mahalliy gidlarni tayyorlash kurslari, ekologik ko'ngillilar harakati samaradorlikni oshiradi. Mahalliy aholi eko-turizm infratuzilmasining rivojlanishida faol ishtirok eta boshlagan sari hududning iqtisodiy ko'rsatkichlari yaxshilanadi, ekologik madaniyat kuchayadi va barqaror turizm modeli shakllanadi.

Shuningdek, Orolbo'yi hududining yangi ekologik brendi shakllanmoqda. Bu brend tabiiy landshaftlar, tarixiy-madaniy obyektlar, ekologik monitoring maydonlari va antropogen o'zgarishlar markaziga aylangan Orol tubi bilan birga talabalarni jalb etadigan ilmiy stansiyalar, ekologik ekspeditsiyalar, dala maktablari orqali mustahkamlanmoqda. Brendning shakllanishida oliy ta'lim nafaqat ilmiy yondashuv, balki marketing, turizm psixologiyasi, xalqaro turizm standartlari, raqamli kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari orqali ham samarali ishtirok etmoqda.

Orolbo'yi hududida ekologik barqarorlikni ta'minlash va uni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqishda eko-turizmni oliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon hududning iqtisodiy tiklanishi, ekologik muvozanatning qayta shakllanishi va mahalliy aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida shakllanayotgan ilmiy-amaliy makon talabalar, olimlar va soha mutaxassislarining ekotizimni chuqur o'rganishi, innovatsion yondashuvlarni joriy etishi, eko-turizmning barqaror modellarini ishlab chiqishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Ta'lim, ilm-fan va amaliyotning uzviy bog'lanishi Orolbo'yi hududini ekologik tiklanish maydonidan zamonaviy eko-turizm markaziga aylantirishda muhim omil bo'lib, bu jarayon hududning xalqaro turizm xaritasida o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kelgusida sohani yanada rivojlantirish uchun oliy ta'lim tizimida eko-turizm yo'nalishidagi fanlar mazmunini chuqurlashtirish, talabalarni dala tadqiqotlariga keng jalb etish, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va mahalliy aholi bilan hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ekoturizm infratuzilmasini takomillashtirish, ekologik monitoring texnologiyalarini keng joriy etish, xalqaro tajribani o'quv jarayoniga integratsiya qilish ham hududning ekologik va iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijobiy prognozlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim va turizmning uzviy integratsiyasi orqali Orolbo'yi hududi kelgusi yillarda barqaror rivojlanishning regional modeli sifatida shakllanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toirova Shohista. O'zbekistonda ekologik turizmning moddiy va huquqiy bazasini shakllantirish. – Экономика и инновационные технологии, 2023, №4(2). DOI: 10.34920/EIF/VOL_2023_ISSUE_4_2.
2. Artikova Shoxida Ilyasovna. Ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari. – Journal of Marketing, Business and Management (JMBM), VOLUME 2, ISSUE 8, December. – P. 4–36. ISSN: 2181-3000.
3. M. Glantz, I. Zonn. The Aral Sea Basin: Water for Sustainable Development. – New York: Routledge, 2015. – 224 p.
4. R. Cabellos-Leyda, J. van der Meer. Ecotourism Policies and Practices in Environmentally Vulnerable Regions. – London: Springer, 2019. – 210 p.
5. FAO. Combating Land Degradation in the Aral Sea Basin. – Rome: FAO Publications, 2021. – 55 p.
6. World Bank. Environmental Restoration and Sustainable Development in the Aral Sea Region. – Washington D.C., 2020. – 92 p.
7. A. Harrison, M. Hitchcock. Tourism, Development and the Environment: Beyond Sustainability? – London: Channel View Publications, 2018. – 304 p.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



ISBN 978-9910-8407-4-6



9 789910 840746